

THE FIRST FEMALE UZBEK LAWYER – HADICHA SULAYMANOVA.

Abdumutaliyeva Feruza

Student of Tashkent State University of Law

abdumutaliyevaferuza@gmail.com

Annotation.

This article analyzes the life circle of the first female uzbek lawyer – Hadicha Sulaimonova: her childhood, education, research, career, her contribution to the development of lawmaking and legislation of Uzbek USSR. The article also describes the personality and work ethics of Hadicha Sulaimonova by giving quotes of the people who lived in the same era with her.

Keywords: Hadicha Sulaimanova, lawyer, legislation, code, minister of justice, court, supreme court, Institute of Soviet construction and law, Tashkent legal institute, head.

1929-yil. Marg’ilondagi badiiy havaskorlar to’garagi a’zosi, xalqqa san’atkor sifatida tanilib qolgan Nurxonning o’z akasi tomonidan o’ldirilishi to’g’risidagi xabar juda tez yoyildi. Ochiq sud majlisida jamiyat qoralovchisi sifatida qatnashgan Tojixon Shodiyevaning so’zlagan har bir so’zlari Farg’ona vodiysining turli hududlaridan kelgan kishilarni hayajonlantirdi. Shular orasida Tojixonning o’tkiri nutqidan, zalvorli sud zali va salobatli sudyalarini ko’rgani holi ko’zi porlagan, qalbida shu insonlar kabi bo’lish ishtiyoqi jo’sh urgan 17 yoshli qiz o’tirardi. U Hadicha Sulaymonova edi. Ha, yosh Hadichanining huquqshunoslik, ayniqsa, jinoyat huquqiga qiziqishishiga aynan shu voqeа kuchli turtki bo’lgandi.

Hadicha Sulaymonova 1913-yilning 3-iyunida Andijonda Sulaymon aka va Otincha opalar xonadonida dunyoga keldi. Otasi Sulaymon Kelganboyev oktyabr inqilobidan so’ng Sho’rolar hukumati tarafida qo’lga qurol olib kurashdi. Farg’ona vodiysida paydo bo’lgan bosmachilarga qarshi kurashda halok bo’ldi. Otasidan erta yetim qolgan Hadicha akasi Yusupjon, opasi Mo’tabar, ukasi Niyoz bilan bir kunda maktabga bordi. O’zining a’lo o’qishi va namunali xulqi bilan tengdoshlaridan ajralib turuvchi Hadicha ushbu 9 yillik o’rus maktabini 1931-yil tamomlab, Sovet qurilishi va huquq ilmiy-tadqiqot institutining tayyorlov kursida 1 yil tahsil oldi. Shundan so’ngina Toshkentdagи Jahon Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquq instituti huquq fakultetining 2-kursiga o’qishga kirdi.

Bo'lajak yuridik fanlar nomzodi, akademik Hadicha talabalik yillarda ham o'zining murakkab yuridik tushunchalarni, qonunchilikni tez ilg'ab olishi va xotirasida saqlashi bilan kursdoshlari orasida tez tanildi va S.E.Avrux, G.M.Arenberg kabi tajribali ustoz-muallimlarning sevimli shogirdiga aylandi. Hadicha bir zum bo'lsada kasbiy rivojlanishdan to'xtamadi. U biroz muddat xalq sudyasi, keyinroq Oliy sud sudyasi sifatida faoliyat olib bordi. Va 1938-yil sentabrida Moskva yuridik instituti sovet jinoyat huquqi kafedrasiga aspirant bo'lib kirdi. Uning ilk aspirantiraga kirgan kunlaridayoq yirik Sovet kriminalist olimi, SSR Fanlar akademiyasi Muxbir a'zosi Trayninning e'tiboriga tushishi va unga ilmiy rahbarlik qilishi ham Hadicha uchun buyuk iftixor edi.

Urush sababli dissertatsiyasini nihoyasiga yetkaza olmagan Hadicha salohiyatli huquqshunos kadrlar yetishtirish maqsadi bilan Toshkent Yuridik Institutida avval assistant, keyinchalik jinoyat huquqi kafedrasi dotsenti sifatida ishlay boshlaydi. O'sha paytlardagi Hadicha opaning talabalaridan biri Belolgazov.A shunday eslaydi:

“Hadicha Sulaymonavaning leksiyalarini hamma zo'r e'tibor bilan tinglar, auditoriyada birorta ham befarq, mudroq bosgan odam bo'lmasdi. Uning leksiyalarida chuqr nazariy tayyorgarlik bilan amaliy bilimlar uyg'unlashgan bo'lardi, u studentlar bilan faqat odam sifatida emas, balki Respublika Oliy sudida ishlovchi mutaxassis sifatida gaplashardi. U leksiyalarni qog'ozga qarab o'qimas, haqiqatlarni bayon qilishda keraksiz, ortiqcha, chiroyli iboralarni ishlatmas edi. Eng murakkab ilmiy konsepsiylar aniq va tushunarli qilib bayon qilinar va uning vazmin, mayin, ishonarli ovozi diqqat-e'tibordan suv quygandek jimjit bo'lib qolgan katta-katta auditoriyalarda hammaga eshitilib turardi”¹

Hadicha opa dars berish bilan bir qatorda o'zining dissertatsiyasi ustida ishladi va 1945-yilning 20-iyulida SSR Adliya komissarligi huzuridagi Butunitifoq yuridik fanlar institutida “Harbiy intervensiya va grajdalar urushi davrida O'zbekiston SSRning jinoyat qonunlari” mavzusidagi dissertatsiyasini himoya qildi. 1948-yilning sentabrida u 2 yilga SSR Fanlar akademiyasiga doktoranturaga yuboriladi. Shu yillari “Sovet davlati va huquqi” jurnalida uning “O'zbekistonda sovet jinoyat qonuning vujudga kelishi” degan maqolasi bosilib chiqdi. Keyinroq esa, “O'zbekiston SSRda sovet sudlarining tashkil topish tarixi” nomli maqolasi nashr etildi. 1950-yil oktabrda Hadicha opaning doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishi Turkiston ASSR va O'zbekiston SSR sud-huquq tizimi rivoji uchun shov-shuvli voqeа bo'ldi. Chunki u paytlari huquqshunoslik sohasida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan ayollar tugul, erkaklar ham sanoqli edi.

1954-yilning sentabr oyida Hadicha Sulaymonova Toshkent Yuridik Institutiga direktor etib tayinlandi. Xuddi shu yili “Ozbekiston SSRda xizmat

¹ H. Sulaymonova. Xotira kitobi. **Ertaga anigini yozaman**

ko'rsatgan fan arbobi" faxriy unvoniga munosib ko'rildi. Hadicha opaning institutda direktorlik vazifasini bajargan paytlari haqida qabulxona xodimasi Galeyeva L.S shunday eslaydi:

"Hadicha Sulaymonova qalbi keng inson edi, o'ziga nisbatan ham, o'ziga nisbatan ham o'z qo'l ostida ishlovchilarga nisbatan ham talabchan edi, eng muhimi u butun vujudi bilan berilib ishlardi. Uning ish kuni ertalab soat 8 dan boshlanardi. Uning o'z ish jadvali bo'lib, unda butun kun nafaqat soatlarga, balki daqiqalarga ham taqsimlab qo'yildi. U o'zining qayerdaligini bilishim uchun meni shu jadval bilan tanishtirib qo'yardi. "Bu jadval odamlar qimmatli vaqtlarini bekor ketkazmasliklari va mening qachon bo'lishimni bilishlari uchun kerak", - derdi u."

Uning insonparvarligi, talabalariga jonkuyarligi va o'zini O'zbekiston SSR sud-huquq tizimiga bag'ishlagan zabardast o'zbek olimasi ekanligi isboti o'laroq Galeyeva quyidagilarni bayon etadi:

"Hadicha Sulaymonova juda ko'ngilchan, kuyinchak ayol edi, har bir talaba to'g'risida qayg'urardi. Bosilib chiqqan asarlari uchun olgan qalam haqining hammasini seyfga solib qo'yish uchun menga berar va so'ngra moddiy jihatdan muhtoj studentlarga ularashar edi. Hadicha Sulaymonova qalam haqini hech qachon o'ziga sarflamasdi, bu uning talabalarga yordami edi."

O'zbek huquqshunos olimasi 1959-yil sentabrdan Respublika Adliya vaziri sifatida faoliyat boshlaydi va uning rahbarlik davrida qonunlarni targ'ib qilish, tushuntirish ishlarini kuchaytirishga katta e'tibor berildi. Uning sa'y harakatlari bilan vazirlikda ayol xodimalar soni sezilarli ko'paydi, Toshkent sud ekspertizasi ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Hadicha opa Sulaymonovaning butun SSR huquqshunoslari orasida yuksak hurmat va mavqega ega bo'lganligini SSSR Oliy Sudi Raisining o'rinnbosari, harbiy kollegiya a'zosi V.Borisoglebskiyning Toshkentda o'tkazilgan katta anjumandan so'ng Hadicha opaga atab yozgan she'rini orqali ham bilib olishimiz mumkin:

JK va JPK taptayyor,

Qizg'in muhokama, bahslar tindi,

Ittifoq qonuni asosida bor –

Mazmun mahalliy qonunga singdi.

Bilim nuri yorqin qalbingizda jo,

So'zingizdan tashna dillar bahramand

Katta rahmat sizga, olim opajon.

Fayzlidir siz bilan barcha anjuman.

Iliq mehribonlik, nonu tuz uchun

Boshimizni egib ta'zim etamiz.

Anjuman ishiga yasagach yakun,

Moskvada sizni intiq kutamiz.

Hadicha Sulaymonova bundan tashqari O'zbekiston SSR Oliy Sudi sudyasi, Respublika Sovetlarining turli bo'g'inlarida deputat, Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, akademik singari bir qancha mas'uliyatlari lavozimlarda faoliyat ko'rsatgan. O'zining ijtimoiy va ilmiy xizmatlari uchun 2 ta "Hurmat Belgisi" ordeni, "Ulug' vatan urushi davridagi shavkatli mehnati uchun" medali, O'zbekiston SSR Oliy Sovetining Faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan Hadicha opa Sulaymonova 1965-yilning 26-noyabrida 52 yoshida o'g'ir xastalikdan vafot etadi. U o'zining qisqa lekin sermazmun umri davomida o'zbek xalq uchun fidoyi xizmat qildi, shogirdlar chiqardi, O'zbekiston SSR yuridik ta'limot asoschilaridan biriga aylandi. Uning O'zbekiston fani, madaniyatiga qo'shgan hissasi ulkan va barakali, hamkasbleri, shogirlari qalbida qoldirgan siymosi o'chmasdir va biz - yosh avlod u kishini har vaqt iftixor ila yodga olamiz.